

Abdumalik ibn Nuh



Abdumalik ibn Nuh

Amiri Rashid

(944-961)

(954-961)

Somoniylar amiri. Otasi **Nuh ibn Nasr** vafot etgach 10 yoshida taxtga o'tirgan. **Nuh ibn Nasr** davrida buvayhiylar bilan boshlangan urush Abdumalik ibn Nuh davrida (956) yarash bilan yakun topadi. Abdumalik ibn Nuh davrida davlatni idora qilishda lashkarboshilarning mavqei baland bo'lgan. Masalan, hojiblik mansabiga tayinlangan **Alpteginning** obro'si oshib ketganidan xavfsirab, uni mansabidan chetlamoqchi bo'lgan, biroq uddasidan chiqa olmagan. Abdumalik ibn Nuh chavgon o'ynab, otdan yiqilib halok bo'lgan.

2023-10-29 20:44:58